Tadqiqotda kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirgan shaxsga jazo tayinlashda jabrlanuvchi xulq-atvorining eʼtiborga olinishi masalasi boʻyicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qoʻllandi. Shuningdek, tadqiqot davomida rasmiy elektron manbalar hamda olimlarning ilmiy maqola va ishlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, maqolada kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirgan shaxsga jazo tayinlashda jabrlanuvchi xulq-atvorining eʼtiborga olinishi masalasi boʻyicha huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va aholi oʻrtasida oʻtkazilgan ijtimoiy soʻrovlar va sud hukmlari natijasi ham tahlil etildi.

**Tadqiqot natijalari**

Bugun sudda jazo tayinlash jarayonida jabrlanuvchi xulq-atvorini eʼtiborga olish

ham muhim ahamiyatga ega. Chunki kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirgan shaxsning harakatlarida koʻp holatlarda jabrlanuvchi xulq-atvori muhim rol oʻynaydi. Kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida qasddan odam oʻldirish holatlari jabrlanuvchining zoʻrlik ishlatishi orqali kelib chiqqanligi; jabrlanuvchi tomonidan ogʻir haqoratlash; jabrlanuvchining qonunga xilof boshqa harakati yoki harakatsizligi hamda yaqinlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari qoʻpol tarzda buzilishi kabilardan kelib chiqadi. Ammo sud amaliyotida jabrlanuvchining bunday harakatlari har doim ham e'tiborga olinavermay, jazo tayinlanishida insonparvarlik tamoyili buzilishiga olib keladi.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirgan shaxsning harakatlari jazo tayinlashda e'tiborga olinishi masalasi bunday jinoyatlarning oldini olish uchun oʻziga xos yechimini kutayotgan muammoga aylanib bormoqdaki, mazkur maqola ham ana shu muammoning ilmiy-nazariy jihatdan oldini olishga va amaliy jihatdan jazo tayinlash masalalarini hal etishga qaratilgan. Ushbu muammolarni oʻrganishdan maqsad:

oʻrganilayotgan muammoning asosi boʻlgan, kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida qasddan odam oʻldirish jinoyati tushunchasining mohiyatini ochib berish va tahlil qilish;

muammoni hal etishning muhim nazariy-amaliy usuli sifatida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirishga qarshi kurashishni tashkil etish va uni kompleks tarzda oʻrganish, uni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

jinoyat huquqiy normalarning kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan turli yuridik normalar tizimidagi oʻrnini oʻrganish;

kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish uchun nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikni takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish hamda kuchli ruhiy hayajonlanish holatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;

kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish jinoyatining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

ushbu jinoyat uchun jazo tayinlash bilan bogʻliq muammolarni hal etish va Jinoyat kodeksini takomillashtirish boʻyicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqarishdan iboratdir.

Shuningdek, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish (JKning 98-moddasi) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilishi holatlarida sud jazo tayinlashda bir qancha muammolarga duch kelishi e'tiborga olinib, bunday muammoning yechimi sifatida ushbu moddaning ikkinchi qismini "ikki yoki undan ortiq shaxsni kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida qasddan oʻldirish" degan ogʻirlashtiruvchi norma bilan ham toʻldirish nazarda tutildi.

Bundan tashqari, jabrlanuvchining xulq-atvori natijasida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish holatida qasddan odam oʻldirish, qattiq ruhiy hayajonlanish holatida sodir etiladigan jinoyatlarga oʻxshash umumiy tomonlar mavjudligi e'tiborga olindi va tahlil etildi. Jumladan, bu oʻxshashliklar, qonunga koʻra, odatdagi qasddan qilinadigan tajovuzlarga nisbatan ularning har ikkalasiga yengilroq jazo berilishi hamda ikkala holatda ham yetkaziladigan zarar jabrlanuvchining huquqqa zid harakati oqibatida vujudga kelishidir. Ikkala holatda ham jinoyat tajovuz qaratilgan shaxs tomonidan emas, balki bunday tajovuz guvohlari tomonidan ham sodir etilishi e'tiborga olinadi. Shu bilan bir qatorda, ikkala jinoyatda ham jabrlanuvchi harakati bilan unga yetkaziladigan zarar oʻrtasida farq yoʻqligi va kutilmagan holatda vujudga kelishi xarakterlanib, sudda jazo tayinlashda bular e'tiborga olinishi kerak.

Yana bir muammo, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam oʻldirishga oid ishlar boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida"gi


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

13-sonli qarorida mazkur harakatlar yuzasidan tushuntirishlar berilmagani ham sudda jazo tayinlashda turli tushunmovchiliklarga sabab boʻlishi mumkin.

Shulardan kelib chiqib muammoning yechimi sifatida mazkur Plenum qarorida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish bilan bogʻliq harakatlar yuzasidan tushuntirishlar berilishi lozim. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarining insonparvarligi va adolatliligi shundaki, shaxsga jazo tayinlash vaqtida sodir etiladigan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, qilmishning sababi, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdori, aybdorning shaxsini hamda jazoni ogʻirlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari hisobga olinadi.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Ma'lumki, aybdorga jazo tayinlash va viktimlikning oldini olishda uning xulq-atvori muhim ahamiyatga ega, bu ayniqsa, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish, tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratda oʻz ifodasini topadi. Aybdorning kuchli ruhiy hayajonlanishiga asosiy sabab jabrlanuvchining gʻayriqonuniy harakatidir. Shuning uchun qonunda toʻsatdan paydo boʻladigan ruhiy hayajonlanish jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida belgilangan. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatini (affektni) baholash uchun uning vujudga kelganligini aniqlash lozim. Ammo oʻz-oʻzidan kuchli ruhiy hayajonlanish javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanmasligi kerak. “U quyidagi shartlar mavjud boʻlgandagina yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi mumkin: 1) kuchli ruhiy hayajonlanish va jinoyat sodir etishga qaratilgan qasdning toʻsatdan paydo boʻlishi; 2) ularning jabrlanuvchi tomonidan zoʻrlik yoki haqorat qilish yoʻli bilan vujudga kelishi” [1].

Jinoyat huquqi nazariyasida kuchli ruhiy hayajonlanishning oʻzi emas, balki jabrlanuvchining huquqqa xilof harakatlari tufayli vujudga kelganligi jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanib, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 98-moddasining qoʻllanishiga muhim asos jabrlanuvchining gʻayriqonuniy xatti-harakatiga javoban affektning paydo boʻlishidir, degan qarash mavjud.

Shuningdek, “jabrlanuvchining qonunga xilof harakati jinoyat huquqiy mazmunga ega boʻlib, sud amaliyotida jabrlanuvchining gʻayriqonuniy xatti-harakatlari har doim ham affekt holati deb topilavermaydi. Ammo bu harakatlarga jinoyat huquqi va sud amaliyotida oʻz-oʻzidan yengillashtiruvchi holat sifatida qaraladi” [2]. Koʻpincha kuchli ruhiy hayajonlanishning vujudga kelishi jabrlanuvchining gʻayriqonuniy xatti-harakatiga javob sifatida vujudga kelib, obyektiv mezon sifatida qaraladi [3]. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatini (affektni) baholash uchun uning kechirimli sabablarga koʻra vujudga kelganini aniqlash lozim. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, oʻz-oʻzidan kuchli ruhiy hayajonlanish javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanmasligi kerak. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 98-moddasining qoʻllanishiga muhim asos jabrlanuvchining gʻayriqonuniy xatti-harakatiga javoban affektning paydo boʻlishidir. Koʻpincha kuchli ruhiy hayajonlanishning vujudga kelishi jabrlanuvchining gʻayriqonuniy xatti-harakatiga javob sifatida vujudga keladi.

Inson ongida reallik va u haqidagi tushunchalar muvozanatda boʻladi. Agar ular oʻrtasida uzilish roʻy bersa, insonda bunga oʻzining munosabati sifatida ma'lum bir psixologik jarayon boshlanadi. Bu jarayon mana shu munosabatni buzgan kishiga nisbatan qaratilgan boʻladi. “Odam oʻldirish obyekti, inson hayoti hisoblanadi. Jabrlanuvchining oʻldirilishi orqali shaxs nafaqat jabrlanuvchiga, balki davlat tomonidan insonlar orasida oʻrnatilgan munosabatlarga zarar yetkazadi. Insonni hayotdan mahrum qilish mumkin emas, bunday holatlar qonun bilan qoʻriqlanadi” [4].

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etiladigan qasddan odam oʻldirish jinoyati-

ning obyektiv tomonini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

a) qasddan odam o'ldirishning jabrlanuvchining zo'rlik ishlatishi orqali kelib chiqqanligi;

b) jabrlanuvchi tomonidan og'ir haqoratlash (inson qadr-qimmatini toptash, uni jinoyat yoki axloqqa qarshi harakat qilganlikda ayblash, dini va millatini haqoratlash);

d) jabrlanuvchining qonunga xilof boshqa harakat-harakatsizligi (o'z burchini bajarishdan bo'yin tovlash va hokazolar).

yaqinlarining huquq va qonuniy manfaatlari qo'pol tarzda buzilishi (masalan, tuhmat, beboshlik yoki beboshlikka olib borish mol-mulkni yo'q qilishi va hokazo) mumkin.

Inson hayotiga qarshi jinoyatning obyektiv tomoni belgilarini aniqlash, ularni kvalifikatsiya qilish jinoyat mazmunini aniqlashning eng muhim belgisi hisoblanadi. Obyektiv belgilar va shaxsning harakatlari orqali uning maqsadi hamda jinoyatning motiviga baho berish mumkin. "Ma'lum bir harakatni sodir etish orqali jinoyat subyektining jinoiy irodasi paydo bo'ladi" [5]. D.A. Kurinov jinoyatning obyektiv tomonini jinoiy qilmishning mag'zi deb ataydi: "Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, uning tashqi tomonidan yaqqol ko'rinadi" [6].

Affekt holatidagi to'qnashuvning janjal yoki urushning "boshlovchi"si rolini jabrlanuvchi o'ynaydi. Uning huquqqa qarshi xulqini jinoyat sodir qilish uchun vaziyat tug'diradi, aybdorning sha'ni va qadr-qimmati tajovuzga qarshi harakatga undaydi, oxir-oqibatda bu jinoyat xavfliligi va aybdor sodir etgan qilmishning darajasiga ta'sir etadi.

Jinoyatning tarkibi, uning jamiyat uchun xavfliligida ifodalanadi. Shuning uchun bu borada A.A. Pentkovskiyning fikrlari to'g'riroqdir: "Agar sodir etilgan qilmish jamiyat yoki davlat tuzimi uchun xavfli bo'lmasa, shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi, qilmishning ijtimoiy xavfliligi jinoyat tarkibining muhim belgisidir" [7]. Huquqshunos A.S. Yakubov ham xuddi shunday fikrni bildiradi: "Har bir jinoyat o'zining obyektiv tomoni bilan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat tarkibining muhim belgisi hisoblanadi, chunki uning bo'lmasligi jinoyat tarkibini yo'q deb hisoblaydi" [8].

Shunisi qiziqki, qonunda og'ir haqoratlash deganda nima nazarda tutiladi va u O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 140-moddasida nazarda tutilgan haqoratlash tushunchasiga mos keladimi degan savolga bir xil javob mavjud emas. Rossiyalik huquqshunos olimlar, jumladan, V.I. Tkachenko: "Bu tushunchalar isbot talab qilmaydi, og'ir haqoratlashga nisbatan moddadagi haqoratlash o'zida jinoyat tarkibi belgilarini mujassam qilgan va JKning ma'lum moddasida ko'rsatilgan haqoratlashdir" [9], – deb ta'kidlaydi.

N.F. Kuznetsov esa: "Bu moddaga to'g'ri keladigan haqoratlashning hammasi ham og'ir haqorat hisoblanmaydi, ya'ni haqoratlash "affekt" tushunchasi sifatida torroq tushunchadir. Og'ir haqoratlash, ya'ni jinoyat sodir qilishda ayblash, ayolning sha'nini haqoratlash va boshqalar ham haqorat qilishga kiradi" [10], – deb ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu fikr unchalik to'g'ri emas, chunki og'ir haqoratlash haqida so'z borganda, nafaqat uning obyektiv tomonlariga, balki uning shaxsga qanday ta'sir etishi hisobga olinishi lozim. Bunday ta'sir darajasi esa obyektiv tomondan shaxsning aniq aytgan so'ziga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra, birinchi xulosa: jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradigan haqoratlashning hammasi ham affekt holatini keltirib chiqarmaydi; ikkinchi xulosa: affekt holatini oddiy haqoratlash ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 140-moddasida ko'rsatilgan haqoratlash bo'lishi uchun albatta inson qadr-qimmati va sha'nini toptashning axloqqa qarshi shakli bo'lishi kerak. Lekin axloqiy shakldagi inson sha'niga aytilgan so'zi yoki qilingan xatti-harakatlari ham affekt holatini keltirib chi-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

qaradi. Bu borada sud amaliyotiga murojaat qilamiz.

2021-yil 25-iyunda Sh. kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida stol ustida turgan issiq choyni erining yuziga sepib yuboradi. Va oʻsha yerda turgan osh pichoqni olib, uning koʻkrak qafasiga bir necha marotaba uradi. Buning natijasida uning yuzi 2–3-darajali kuyib, 2018-yil 11-iyulda kasalxonada vafot etadi. Sh. tergov jarayoni va sud zalida quyidagilarni koʻrsatadi. U 2018-yil 20-iyundan xotini unga xiyonat qilayotganligidan shubhalanib, uning orqasidan poylay boshlaydi. Uning shubhalari asossiz boʻlgani uchun ular orasida janjal chiqqan. Ayol shu paytlari homilador boʻlgan, 2018-yil 25-iyunda eri uni haqoratlab, urmoqchi boʻladi. Ayblanuvchi homiladorligi va haqorat natijasida oʻzini yomon his etadi, nima qilayotganligini bilmagan. Shunga koʻra, Sh.ning qilmishi jabrlanuvchining ogʻir haqoratlashi natijasida kelib chiqqan ruhiy hayajonlanish natijasida sodir etilgan, shuningdek, u homilador boʻlgan [11]. Sud ushbu holatlarni e’tiborga olib jazo tayinlagan.

Haqoratning ogʻirlik darajasini aniqlash uchun odam oʻldirgan aybdorning shaxsiy xususiyatini hisobga olish kerak. Bu xususiyatga aybdorning homiladorligi ham kiradi.

Boshqa mualliflar ham shunga oʻxshash fikrlarni bildirgan: ogʻir haqoratlash jabrlanuvchida ogʻir kechadigan, uning shaxsiy qadr-qimmati, sha’nini yoki yaqinlarini haqoratlash, shuningdek, oʻzining ogʻirligi jihatidan ruhiy zoʻrlashga teng haqoratlashni kiritadilar [12].

M.H. Rustamboyevning fikriga koʻra, “subyektda affekt holati unga nisbatan gʻayriqonuniy zoʻrlash yoki ogʻir haqoratlash (begona kishini) subyektda haqoratlangan kishiga nisbatan jahl tuygʻusini uygʻotadi. Koʻpincha bu holat ojiz insonlar: bolalar, nogironlar, qariyalarga nisbatan ishlatilsa, ya’ni shaxsning koʻz oldida ojiz nogiron doʻpposlansa, qariya kishi ustidan mazax qilib kulishsa yoki yosh bola zoʻrlansa, ushbu harakatlarning guvohi boʻlgan shaxs bu shaxslarga begona boʻlsa ham affekt holatiga tushadi” [13].

Bizning fikrimizcha, ushbu holatlarda bunday munosabatda boʻlish nafaqat ruhiy, balki axloqiy jihatdan ham oʻz ta’sirini oʻtkazadi. Keltirilgan misollarda ikki kishi oʻrtasidagi qarama-qarshilik uchinchi shaxs e’tiborini oʻziga tortadi. Chunki u ham oʻzini shu vaziyatning qatnashchisi deb hisoblaydi. Bu emonpatiyaning bir koʻrinishidir, ya’ni bir inson boshqa bir insonning his-tuygʻulari xavotirini his etishi. Bu esa emotsional holat sifatida namoyon boʻladi, haqiqatan ham, insonga nafaqat oʻziga qarshi yoʻnaltirilgan harakat, balki boshqaga qarshi qaratilgan harakat ham ta’sir etadi.

Sud amaliyotiga tayanadigan boʻlsak, bunday ta’sir etishning turli shakllari mavjud. Ammo bunday holatda odam oʻldirishda oʻta muhim sababni hisobga olish kerak, aks holda, bu qasddan sodir etilgan boʻlishi ham mumkin. “Hamma soʻz va haqoratlashlar, faktlar ham insonni affekt holatiga olib kelavermaydi” [1], – deb toʻgʻri ta’kidlaydi huquqshunos M.H. Rustamboyev.

Affekt holati gʻayriqonuniy majburlash va boshqa gʻayriqonuniy harakatlar orqali sodir boʻladi. Koʻpincha bu holatda odam oʻldirish oilaviy sharoitlarda yuzaga keladi. V.I. Tkachenkoning fikricha, affekt holatida yuzaga kelgan jinoyatlarni oʻta xavfli deb hisoblash notoʻgʻri, chunki bunda jabrlanuvchining nojoʻya harakati sabab boʻladi.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etiladigan qasddan odam oʻldirish jinoyatining obyektiv tomonini tahlil qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim: a) qasddan odam oʻldirish jabrlanuvchining zoʻrlik ishlatishiga javoban kelib chiqqanligi; b) jabrlanuvchi tomonidan ogʻir haqoratlash (inson qadr-qimmatini toptash, uni jinoyat yoki axloqqa qarshi harakat qilganlikda ayblash, dini va millatini haqoratlash); d) jabrlanuvchining qonunga xilof boshqa harakat-harakatsizligi (oʻz burchini bajarishdan boʻyin tovlash kabilar) [9].

Darhaqiqat, affekt holatidagi kishi harakatlari, bir tomondan, ongli harakat deb hisoblansa, ikkinchi tomondan, bu impulsiv harakat boʻlgani tufayli oʻz harakatlarini boshqarish va oqibatini anglash qobiliyatining pasaygani bilan bogʻliqdir. Impulsiv harakatlarni oʻylanmagan harakatlar hisoblab, ongli harakatlarga qarama-qarshi qoʻyadilar [14]. Ayniqsa, shaxsiy qadr-qimmatni kamsitishda qaygʻu, gʻam-alam kuchli boʻladi. Kuchli gʻam-alamli hissiyotning paydo boʻlishida jabrlanuvchining huquqqa xilof harakatlari alohida oʻrinda turadi. Bu koʻplab sotsiologik soʻrovlar va olimlarning tadqiqotlari natijasida isbotlangan. Masalan, A.B. Melnichenkoning fikricha, "shaxsning qadr va sha'nini oʻzi va boshqalar oldida haqoratlash tushuniladi" [15].

Toʻsatdan kuchli ruhiy hayajonlanish va shu munosabat bilan odam oʻldirishga qasd qilish nafaqat gʻayriqonuniy zoʻrlik yoki ogʻir haqorat qaratilgan shaxsda, balki shu hodisaning guvohi boʻlgan har qanday boshqa shaxslarda ham paydo boʻlishi mumkin.

Shuningdek, jinoyat qonunchiligida jinoyatni sodir etishdagi jabrlanuvchining salbiy harakatlari jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ayblanuvchining foydasiga yengilliklar berishi ham mumkin. Jabrlanuvchining shaxsi, turmush sharoiti va jinoyat olamida tutgan oʻrnini aniqlash jinoyat obyektining mohiyati va aniqligini koʻrsatishda ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, zaruriy mudofaa va uning chegarasidan chetga chiqish ham yengillashtiruvchi holatlarga kirib, bunda ham jabrlanuvchining xulq-atvori natijasida jinoyat kelib chiqadi. Zaruriy mudofaa va uning chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan jinoyatlar, qattiq ruhiy hayajonlanish holatida sodir etiladigan jinoyatlarga oʻxshab ketadi. Bu jinoyatlarning oʻxshash umumiy tomonlari koʻp boʻlib, birinchidan, bu oʻxshashliklar, qonunga koʻra odatdagi qasddan qilinadigan tajovuzlarga nisbatan ularning har ikkalasiga yengilroq jazo berilganidadir. Ikkala holatda ham yetkaziladigan zarar jabrlanuvchining huquqqa zid harakati oqibatiga javobdir. Ikkinchidan, ikkala holatda ham jinoyat tajovuz qaratilgan shaxs tomonidan emas, balki bunday tajovuz guvohlari tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Uchinchidan, ikkala jinoyatda ham jabrlanuvchi harakati bilan unga yetkaziladigan zarar oʻrtasida farqlarga boʻlishning yoʻqligi va kutilmagan holatda vujudga kelishi xarakterlidir [16].

**Xulosalar**

Xulosa qiladigan boʻlsak, sud amaliyoti tahlili shuni koʻrsatadiki, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish (JKning 98-moddasi) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan boʻlsa, sud jazo tayinlashda bir qancha muammolarga duch keladi. Bunday muammolarning oldini olish maqsadida ushbu moddaning ikkinchi qismini "Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan oʻldirish", deb toʻldirishni taklif etamiz. Bunday ogʻirlashtiruvchi holatlar MDH davlatlarining koʻpgina jinoyat qonunchiligida mavjud. Jumladan, Ozarbayjon JKning 122-moddasi 122.2-qismida, Armaniston JKning 105-moddasi ikkinchi qismi, Gruziya Jinoyat kodeksi 111-moddasi ikkinchi qismi, Qozogʻiston JKning 98-moddasi ikkinchi qismi, Qirgʻiziston JKning 98-moddasi ikkinchi qismi, Rossiya JKning 107-moddasi ikkinchi qismi, Tojikiston JKning 106-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi JKning 98-moddasi kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish deya nomlangan boʻlib, mazkur moddaning dispozitsiyasida "Jabrlanuvchi tomonidan qilingan gʻayriqonuniy zoʻrlik yoki ogʻir haqorat, shuningdek, uning boshqa gʻayriqonuniy harakatlari tufayli toʻsatdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish", – deb ta'rif berilgan.

Ammo amaldagi Jinoyat kodeksida "kuchli ruhiy hayajonlanish holati" toʻliq yoritilma-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

gan bo‘lib, kvalifikatsiya jarayonida tahqirlash yoki uzoq davom etgan aqli rasolikni istisno etmaydigan ruhiy buzilish oqibatida mazkur holat vujudga kelganda, qilmishga baho berish yuzasidan muammolar vujudga kelmoqda.

Shulardan kelib chiqib, ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida modda dispozitsiyasiga aniqlashtiruvchi o‘zgartish kiritilib, O‘zbekiston Respublikasi JKning 98-moddasi dispozitsiyasini quyidagicha ta’riflash maqsadga muvofiq bo‘lardi: “Jabrlanuvchi tomonidan qilingan qonunga xilof zo‘rlik, tahqirlash yoki og‘ir haqorat, shuningdek, uning boshqa qonunga xilof qilmish yoki axloqqa zid xulq-atvori tufayli, shuningdek, shunday harakatlar ta’siri ostida vujudga kelgan, uzoq vaqt davom etgan ruhiy buzilish oqibatida to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish”.

Bundan tashqari, ikki yoki undan ortiq shaxsning o‘limi uchun umumiy jazo belgilash mazkur qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini inobatga olishga va adolatli jazo tayinlashga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli JKning 98-moddasida “ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan” harakatlar jinoyatni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi lozim. Chunki amaldagi normalar O‘zbekiston Respublikasi JKning 8-moddasi, ya’ni odillik prinsipiga zid bo‘lib, unda aybdor shaxs tomonidan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bir shaxsni qasddan o‘ldirganlik va ikki yoki undan ortiq shaxsni bir vaqtda (yoki turli vaqtlarda bir yil davomida) kuchli ruhiy hayajonlanish holatida o‘ldirishi uchun ham javobgarlik doirasi bir xil o‘rnatilgan.

Mazkur sabablarni inobatga olib, JKning 9-moddasi – ayb uchun javobgarlik prinsipiga asoslanib, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish nazarda tutilgan moddasini ikkinchi qism bilan to‘ldirish kerak, deb o‘ylaymiz. Bu esa sud amaliyotida shaxsning aybi isbotlangan jinoyatlari uchun javobgar bo‘lishini ta’minlaydi. Xorijiy davlatlar tajribasi tahlil etilganda MDH davlatlaridan Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Belarus, Armaniston jinoyat kodekslarida “kuchli ruhiy hayajonlanish holatida ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirganlik” uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

## REFERENCES

1. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Vol. 2. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2024, p. 696.

2. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2011, p. 63.

3. Ugolovnoe pravo. Osobennaya chast’ [Criminal Law. Special Part]. 4th ed. Moscow, Norma Publ., 2008, p. 61.

4. Kadirov M. Ugolovnoe pravo Respubliki Uzbekistan [Criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 1997, p. 19.

5. Daurov T.G. Ugolovnaya otvetstvennost’ za legkie telesnye povrezhdeniya [Criminal liability for minor bodily harm]. Saratov, Saratov University, 1980, p. 68.

6. Kurinov B.A. Nauchnye osnovy kvalifikatsii prestupleniy [Scientific basis for the classification of crimes]. Moscow, Moscow State University, 1984, p. 69.

7. Pintkovskiy A.A. Uchenie o prestupleniyakh po sovetskomu ugolovnomu pravu [The doctrine of imprisonment according to Soviet criminal law]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1961, p. 115.

8. Yakubov A.S. Uchenie o prestuplenii po zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [The doctrine of crime under the legislation of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs, 1995, p. 45.

9. Tkachenko V.I. Kvalifikatsiya prestupleniy protiv zhizni i zdorov'ya po sovetskomu ugolovnomu pravu [Classification of crimes against life and health under Soviet criminal law]. Moscow, Vuzy Publ., 1977, pp. 47–48.

10. Kuznetsova N.F. Problemy kvalifikatsii prestupleniy: lektsii po spetskursu «Osnovy kvalifikatsii prestupleniy» [Problems of Crime Qualification: Lectures on the special course "Fundamentals of Crime Qualification"]. Moscow, Gorodets Publ., 2007, p. 336.

11. From the archive materials of the Kashkadarya regional court. 2022, from criminal case number 325\217.

12. Salayev N.S., Niyozova S.S., Otajonov A.A. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari [Problems of qualification of crimes]. Tashkent, TSUL, Publ. 2024, p. 50.

13. Rustamboev M.X. Otvetstvennost' za prestuplenie protiv zdorov'ya po zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [Responsibility for crimes against health under the legislation of the Republic of Uzbekistan]. Nukus, 1992, p. 165.

14. Niyozova S.S. Reasons for the Murder of a Newborn Child by a Mother and Criminal Liability for it. *Int J Semiot Law*, 2024, vol. 38, pp. 937–951. DOI: 10.1007/s11196-024-10174-8.

15. Melnichenko A.B. Ugolovno-pravovaya bor'ba s nasil'stvennymi posyagatel'stvami dlya lichnosti, sovershennymi v sostoyanii sil'nogo dushevnogo volneniya [Criminal-legal struggle against violent attacks on a person, committed in a state of strong emotional agitation]. Moscow, 1990, p. 21.

16. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2025-yil 3-son**

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3